UDK: 330.341.1

INNOVATSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Ollaberganova Rayxon Kamiljonovna, *katta o'qituvchi,*
E-mail: rayhonallaberganov234@gmail.com,
Rajabova Matlyuba Qodirberdiyevna, *talaba,*
E-mail: matlubar14@gmail.com,
Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion loyihalarning zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion loyihalarning iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari, ularning samaradorligini belgilovchi omillar hamda O'zbekistonda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion loyihalar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni egallash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль и значение инновационных проектов в развитии современной экономики. В исследовании рассмотрены механизмы влияния инновационных проектов на экономический рост, факторы, определяющие их эффективность, а также меры, реализуемые в Узбекистане по поддержке инновационных проектов. Результаты показали, что инновационные проекты имеют решающее значение для повышения конкурентоспособности национальной экономики, освоения новых рынков и обеспечения долгосрочного экономического роста. В статье разработаны практические рекомендации по повышению эффективности инновационных проектов.

Kalit so'zlar: innovatsion loyihalar, iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, innovatsion iqtisodiyot, texnologik taraqqiyot, investitsiyalar, startap ekotizimi.

Ключевые слова: инновационные проекты, экономический рост, конкурентоспособность, инновационная экономика, технологический прогресс, инвестиции, стартап-экосистема.

Annotation. This article analyzes the role and significance of innovative projects in the development of the modern economy. The study examines the mechanisms through which innovative projects influence economic growth, the factors determining their effectiveness, and the measures implemented in Uzbekistan to support innovative initiatives. The findings show that innovative projects play a decisive role in increasing national economic competitiveness, entering new markets, and ensuring long-term economic growth. The article proposes practical recommendations to improve the effectiveness of innovative projects.

Keywords: innovative projects, economic growth, competitiveness, innovation-driven economy, technological progress, investments, startup ecosystem.

Kirish. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi innovatsiyalar hisoblanadi. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsion yechimlar va raqamli texnologiyalar asosiy omilga aylanmoqda. Iqtisodiy o'sish har qanday davlat iqtisodiyoti muvaffaqiyatining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, bu jarayonda innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi, faoliyat samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi .

Innovatsion loyihalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli bir qator fundamental jihatlar bilan belgilanadi. Birinchidan, innovatsiyalar yangi mahsulot va xizmatlar yaratish orqali qo'shimcha qiymat hosil qiladi. Ikkinchidan, ular ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish

va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Uchinchidan, innovatsion loyihalar yangi bozorlarni o‘zlashtirish va mavjud bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi .

O‘zbekiston Respublikasida ham innovatsion rivojlanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatni innovatsion jihatdan taraqqiy etgan kuchli elliktalik mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifasi belgilangan [1]. "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida"gi Qonun (2020) va "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi kabi dasturiy hujjatlar innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini yaratgan [2,3].

Metodologiya. Mazkur tadqiqot “Innovatsion loyihalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli” muammosini kompleks o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda kvalitativ (sifat) va kvantitativ (miqdoriy) yondashuvlar uyg‘unligi qo‘llanilgan. Tadqiqot dizayni bir necha bosqichdan iborat: nazariy-metodologik asoslarni tahlil qilish, empirik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish hamda natijalarni umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

Natijalar. O‘zbekiston Respublikasida 2025-yil yakunlari bo‘yicha iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 591,1 trillion so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga o‘sgan. Shu davrda yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 33,5 milliard AQSh dollarini yoki 422,1 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu umumiy investitsiyalar hajmining taxminan 71,4 foiz ulushiga to‘g‘ri keladi[4].

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xorijiy investitsiya va kreditlarning taqsimlanish tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng katta ulush ishlab chiqarish sanoatiga to‘g‘ri kelgan (33,2 foiz). Ikkinchi o‘rinda elektr va gaz bilan ta’minlash sohasi (17,1 foiz), uchinchi o‘rinda tog‘-kon sanoati (11,9 foiz) joy olgan. Qishloq xo‘jaligi 9,2 foiz, qurilish 6,1 foiz, tashish va saqlash 5,3 foiz, suv bilan ta’minlash va kanalizatsiya 2,1 foiz, sog‘liqni saqlash 1,7 foiz, axborot va aloqa sohasi esa 1,5 foiz ulushga ega bo‘lgan [4]

Tadqiqot natijalari innovatsion loyihalarning iqtisodiyotga ko‘p qirrali ta'sir ko‘rsatishini tasdiqladi. innovatsion loyihalarning asosiy ta'sir yo‘nalishlari keltirilgan(1-jadval).

1-jadval

Innovatsion loyihalarning iqtisodiyotga ta'sir yo‘nalishlari

Ta'sir yo‘nalishi	Asosiy mexanizmlar	Kutiladigan natijalar
Iqtisodiy o‘sish	Yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish	YaIM o‘sishi, mehnat unumdorligining ortishi
Raqobatbardoshlik	Innovatsion mahsulotlar yaratish, bozorlarni kengaytirish	Eksport salohiyatini oshirish, import o‘rnini bosish
Tarkibiy o‘zgarishlar	Sanoatni modernizatsiya qilish, yangi tarmoqlarni shakllantirish	Yuqori texnologiyali sektor ulushining o‘sishi
Bandlik	Yangi ish o‘rinlari yaratish, malaka talab qiladigan sohalar rivoji	Ish bilan bandlik darajasining oshishi

O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, davlat xizmatlarining 60% dan ortig‘i onlayn tarzda taqdim etilishi yo‘lga qo‘yilgan. Fintech xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2023-yilda 6,5 milliondan oshgan [3].

Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 1-yarim yillik faoliyati natijalari quyidagilarni ko‘rsatadi:

- Davlat ilmiy dasturlari doirasida 14 ta tanlov o‘tkazilib, 293 ta loyiha moliyalashtirilgan

- O‘tuvchi loyihalarni moliyalashtirishga 217,95 milliard so‘m yo‘naltirilgan
- Startap loyihalar natijasida 13 ta yangi innovatsion mahsulot ishlab chiqarilgan
- 23 ta yangi ish o‘rni yaratilgan
- 115 ta startap loyihaga jami 3,64 mlrd so‘m va 70 000 AQSh dollari jalb qilingan.

"Spin-off" korxonalar faoliyati. Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar huzurida tashkil etiladigan "spin-off" korxonalar innovatsion loyihalarni tijoratlashtirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. 2025-yil birinchi yarim yilligida O‘zbekiston bo‘ylab "spin-off" korxonalar soni 25 taga yetkazilgan . Ushbu korxonalar:

- Ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etadi
- Ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali iqtisodiy foyda olish imkonini beradi
- Yangi ish o‘rinlari yaratadi
- Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiradi.

O‘zbekistonda innovatsion loyihalar asosan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1. **Raqamli iqtisodiyot** – elektron hukumat tizimi, raqamli xizmatlar, IT-startaplar
2. **Qishloq xo‘jaligi** – agrotexnologiyalar, suv tejovchi texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash
3. **Energiya** – qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi
4. **Sanoat** – ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi mahsulot turlarini yaratish

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmi 2025-yilgacha umumiy energiya ishlab chiqarishning 25 foizigacha yetkazilishi rejalashtirilgan.

Muhokama. Innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli klassik iqtisodchilar tomonidan ham o‘rganilgan. Y.Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili deb hisoblagan. N.D. Kondratyev esa uzoq to‘lqinli iqtisodiy sikllarni innovatsiyalar bilan bog‘lagan [5] . Zamonaviy tadqiqotlar innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni egallash, mahsuldorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi strategik rolini isbotlagan.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimining shakllanishi ijobiy natijalar bermoqda. Biroq, bir qator muammolar saqlanib qolmoqda:

1. Moliyalashtirish muammolari – venchur kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi

2. Tijoratlashtirish to‘siqlari – ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarish mexanizmlarining takomillashmaganligi

3. Huquqiy-me’yoriy bo‘shliqlar – intellektual mulkni himoya qilish tizimining takomillashtirishga ehtiyoji

4. Moliyaviy savodxonlikning pastligi – startap loyihalar mualliflarining moliyaviy masalalarda yetarli bilimga ega emasligi

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda quyidagi mexanizmlar samarali hisoblanadi(2-jadval).

2-jadval

Innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda samarali mexanizmlar

Mamlakat	Qo‘llanilgan mexanizm	Natija
Isroil	"Yozma" dasturi	Yuqori texnologiyali startaplar rivoji
Singapur	Hamkorlikdagi nvestitsiyalarni rag‘batlantirish	Innovatsion ekotizim shakllanishi
Janubiy Koreya	Jamg‘armalar jamg‘armasi (fund-of-funds) modeli	Venchur kapital bozorining rivojlanishi

Startap loyihalar natijasida 13 ta yangi innovatsion mahsulot ishlab chiqarilgani va 23 ta yangi ish o‘rni yaratilgani innovatsion loyihalarning real sektorga ta'sirining dastlabki belgilaridir. 115 ta startap loyihaga jami 3,64 mlrd so‘m va 70 000 AQSh dollari jalb qilingani esa innovatsion ekotizimda venchur moliyalashtirish mexanizmlarining shakllana boshlaganidan dalolat beradi . Biroq, bu ko‘rsatkichlarni rivojlangan mamlakatlar (masalan, Isroil, Singapur, Janubiy Koreya) bilan solishtirganda, O‘zbekiston hali innovatsion rivojlanishning dastlabki bosqichida ekanligini tan olish kerak[5].

"Spin-off" korxonalar faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. 2025-yil birinchi yarim yilligida O‘zbekiston bo‘ylab "spin-off" korxonalar soni 25 taga yetkazilgan . Bu oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda yaratilgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmining shakllanayotganidan dalolat beradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, aynan "spin-off" korxonalar fundamental tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Masalan, AQShning Stanford universiteti atrofida shakllangan Silikon vodiysi aynan shunday mexanizm orqali rivojlangan. Shu bois, O‘zbekistonda "spin-off" korxonalar sonining ortib borayotganini ijobiy tendensiya sifatida baholash mumkin. Biroq, ularning faoliyat samaradorligi, yaratilgan mahsulot va xizmatlarning bozordagi o‘rni alohida tadqiqot talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsion loyihalarning o‘zaro bog‘liqligi masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xizmatlarining 60% dan ortig‘i onlayn tarzda taqdim etilishi, fintech xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining 2023-yilda 6,5 milliondan oshgani raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi . Bu jarayon innovatsion loyihalar uchun qulay muhit yaratadi, chunki raqamli infratuzilma innovatsiyalarni joriy etish xarajatlarini kamaytiradi va ularning tarqalishini tezlashtiradi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyot" yo‘nalishida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 2025-yilga borib 25% ga yetkazish rejalashtirilgani innovatsion loyihalarning yana bir muhim yo‘nalishini belgilaydi . Bu ekologik muammolarni hal qilish bilan birga, iqtisodiyotning energetika xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion loyihalar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion loyiha muvaffaqiyatining asosiy omillari qatoriga loyihaning noyobligi, ilmiy asoslanganligi, bozor talabi, iqtisodiy samaradorlik, moliyalashtirish imkoniyatlari va huquqiy himoya kiradi. Bu omillarning har biri alohida tahlilga loyiq. Jumladan, O‘zbekiston sharoitida ko‘plab innovatsion loyihalar aynan moliyalashtirish muammosi sabab to‘xtab qolayotgani kuzatilmoqda. Xususan, venchur kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, chiqish imkoniyatlarining cheklanganligi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi asosiy to‘siqlardan biridir. Shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish tizimining takomillashmaganligi ham innovatorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli muhim, biroq bu rol vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi kerak. Dastlabki bosqichlarda davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish, infratuzilma yaratish va qulay huquqiy muhit ta'minlash orqali innovatsion ekotizimni shakllantirishga ko‘maklashadi. Keyingi bosqichlarda esa xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanadi. Isroilning "Yozma" dasturi, Singapurda qo‘llanilgan hamkorlikdagi investitsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmi, Janubiy Koreyaning "jamg‘armalar jamg‘armasi" (fund-of-funds) modeli bu borada o‘rnak bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular innovatsion loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida hisobga olinishi lozim bo‘lgan omillarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, innovatsion loyiha tashabbuskorlari loyihaning texnologik yangiligiga e'tibor qaratish bilan birga, uning bozordagi talabi va iqtisodiy samaradorligini ham chuqur tahlil qilishlari zarur. Davlat organlari uchun esa innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ayniqsa, moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu cheklovlarni bartaraf etishga, xususan, innovatsion loyihalarning uzoq muddatli ta'sirini o‘rganishga, turli sohalardagi innovatsion loyihalarni qiyosiy tahlil qilishga, shuningdek innovatsion loyihalarning ijtimoiy ta'sirini baholashga qaratilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Innovatsion loyihalar zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ular iqtisodiy o‘sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi[6].
2. Innovatsion loyihalarning samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq**:** loyihaning noyobligi, ilmiy asoslanganligi, bozor talabi, iqtisodiy samaradorlik, moliyalashtirish imkoniyatlari va huquqiy himoya[7].
3. O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda**.** 2025-yil holatiga ko‘ra, 293 ta loyiha moliyalashtirilgan, 115 ta startap loyiha qo‘llab-quvvatlangan, 25 ta "spin-off" korxona tashkil etilgan .
4. Raqamli texnologiyalar va "yashil iqtisodiyot" innovatsion loyihalarning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Davlat xizmatlarining 60% dan ortig‘i onlayn tarzda taqdim etilmoqda, fintech xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 6,5 milliondan oshgan .
5. Innovatsion loyihalar samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi: huquqiy islohotlar, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, xorijiy tajribani moslashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish[8-10].

O‘zbekiston uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Huquqiy islohotlar – innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish
2. Soliq imtiyozlari – innovatsion loyihalarga investitsiya qiluvchi investorlar uchun soliq imtiyozlari joriy etish
3. Birgalikda sarmoya kiritish mexanizmlari – davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish
4. Salohiyatni oshirish tashabbuslari – innovatsion menejment bo‘yicha ta'lim dasturlarini rivojlantirish

Innovatsion loyihalarni rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlash va "yashil iqtisodiyot"ga o‘tish jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-37-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” Qonuni, 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son
3. Innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining sanoat korxonalari samaradorligiga ta'siri. (2025). Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil
4. O’zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari
5. Шумпетер, Й. (1982). *Теория экономического развития*. Москва: Прогресс
6. Кондратьев, Н.Д. (1993). *Избранные сочинения*. Москва: Экономика
7. Qobilova, M., & Usanova, F. (2025). Hozirgi kunda iqtisod sohasida qilinayotgan innovatsion yangiliklar. *Ilmiy axborotnoma*, 9(2), 65-67
8. Xalilova, X.X. (2025). Qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning o‘rni. *Raqamli iqtisodiyot*, 12, 222-234

9. Rajabov.A.(2025).Innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqamli transformatsiyaning mintaqaviy iqtisodiy tendensiyalarga ta'siri. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 3(8), 111-118

10. Sanoat korxonalarining innovatsion va investitsiya loyihalari samaradorligi. (2023). *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(6)